

O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **101 182** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **558** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **100 624** tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-aprel oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **165 865,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **22,9** % ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **29 495,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **126,1**%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa **113 805,8** mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – **121,3** %).


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

2026-yil yanvar-aprel oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

**Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi**
yanvar-aprel oylari




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **57 301** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **517** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **56 784** tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2026- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **155 875,5** mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **12,7** %ga o'sdi.


Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi **44 810,0** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **109,9** %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa **111 065,5** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **113,9** %) tashkil etdi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi **71,3** %ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2026- yil yanvar-aprel oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari
2026- yil yanvar-aprel oylari




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **32 266** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **266** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **32 000** tani tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **69 813,9** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davriga nisbatan **7,2** %ga o'sdi. Savdo aylanmasining **79,8** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa **20,2** %ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi
2026- yil yanvar-aprel



IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning fizik hajm indeksi bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistik ko'rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

Ba'zi hollarda, jami va tarkibiy qismlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1290)

